

**MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARDA O'YIN PSIXALOGIYASINI
SHAKILLANTIRISH O'NG MEXANIZMLARI.**

Terdpi Texnologik ta'lim yo'nalishi 1-kurs talabasi

ERGASHEVA NOZIMA RAXMONQUL QIZI

TerDPI Amaliy psixologiya yo'nalishi 2-kurs talabasi

Abdullayeva Sevinch Faxriddin qizi.

Annotasiya: Maktabgacha yoshdagi bolalarda o'yin psixalogiyasi shakllantirish mexanizmlari bolalarning ruhiy rivojlanishi va ijtimoiy ko'nikmalarni shakllantirishda muhim rol o'ynaydi. O'yin orqali bolalar o'z hissiyotlarini ifodalaydi boshqalar bilan muloqot qiladi o'zlarini yangi vaziyatlarda sinab ko'radilar.

Аннотация: Механизмы формирования игровой психологии у детей дошкольного возраста играют важную роль в формирования и психического развития и социальных навыков детей. через игру дети выражают своих чувства общаются с другими пробуют в новых ситуациях.

O'yinning bolalar psixik taraqqiyotidagi g'oyat katta ahamiyatni nazarda tutib mashhur psixologlar va mutafakkirlar yozuvchilar o'zlarining bu masalaga doir qimmatbaho fikrlarini yozib qoldirganlar A.S Makarenkoning fikricha bolalarning o'yin faoliyatlari ularni jismoniy va psixik jihatdan garmonik ravishda rivojlanishlari uchun birdan - bir vositadir. Katta odamlar uchun mehnat faoliyati qanchalik ahamiyatli bo'lsa bolalar uchun o'yin shunchalik ahamiyatga ega. Maktabgacha yoshdagi bolalarda o'yin psixalogiyasi - bu bolalarning ruhiy emotsional va ijtimoiy rivojlanishni taminlaydigan muhim mexanizm. O'yin faoliyati 1 yoshdan 7 yoshgacha oraliqda bo'ladi o'yin turlari 3 turga bo'linadi. Rolli o'yinlar - bolalar o'zlarini turli ijtimoiy rollarda tasavvur qilib o'zaro muloqot qiladi bu o'yinlar do'stlik va jamiyatga moslashishga yordam beradi. Sujetli o'yinlar - bu o'zaro muloqot va rollarni ifodalash orqali muayyan mavzularni o'rganishga qaratilgan



o'yinlardir. Ular bolalarning ijodkorligini ijtimoiy ko'nikmalarni va tasavvurni rivojlantirishda muhim ahamiyatga ega. Obrazli o'yinlar - bu harakatga va voqealarni tasvirlaydigan bolalarning tasavvurini va ijodkorligini rivojlantirishga qaratilgan o'yinlardir bu o'yinlar maktabgacha yoshdagi bolalarda katta taassurot qoldiradi. Bu turdagi o'yinlar bolalarda tarbiyaviy ahamiyatni ham shakllantirishi mumkin. Jismoniy faoliyatiga hamda ruhiyatiga ham yaxshi tasir o'tkazadi ushbu o'yinlar xayoti halq turmush tarzida muhim qismini bo'lganligini ham ko'rish mumkin buyuk allomalarimiz Beruniy, Alisher Navoiy, Firdavsiy, Koshg'ariy kabi buyuk zotlarning o'yinlarda qatnashish odobi kabi o'yinlarning badiiy ifodasi jiddiy fikrlar bilan izxor etilgan. Psixologlar o'yinni bog'cha davrida yetakchi faoliyat deb hisoblaydilar o'yinlar tufayli bolaning rivojlanishi sifatleri ruhiyati sezilarli ravishda o'zgaradi. Bolalarga o'yinlar o'ynatish orqali aqliy o'sish ijobiy tomonga o'zgaradi. Ular o'yin faoliyatida xayoliy va afsonaviy obrazlarni yaratadilar bola o'zi qiziqqan turli o'yinlar orqali yanada qiziqishi ortadi. O'yinlar orqali qiziqqan kasblariga yanada chuqurroq yondashadi va bu borada ularda qobilyati ham shakllanishi mumkin xotirasi ijodiy fikrlari tafakkuri va tasavvurini o'stirishga xizmat qiladi. Maktabgacha yoshdagi bolalarda o'yin psixalogiyasi bir necha muhim mexanizmlariga asoslangan. O'yin orqali o'rganish - o'yin bolalarga o'z xis tuyg'ularini ifoda etishi va yangi ma'lumotlarni o'zlashtirish imkonini beradi.

Tajribalar va rollar- bolalar o'yin davomida turli rollarni bajarishda bu esa ularga ijtimoiy ko'nikmalarni va shaxsiy identitetni ishlab chiqishda yordam beradi.

Emotsional rivojlanish - o'yin bolalar uchun emotsional rivojlanishning muhim shakli hisoblanadi bu mexanizmlar umuman olganda bolalarning psixologik salomatligini oshirishga yordam beradi. O'yinning bolalar psixik taraqqiyotidagi qudratli roli mashhur pedagog va psixologlardan tashqari mutafakkir yozuvchilarni ham diqqat e'tiborini jalb etgan. Masalan Rus yozuvchilaridan biri M.Gorkiy bolalar o'yin va uning mohiyati haqida shunday degan edi." O'yin bolalar uchun o'zlari yashab turgan dunyoni bilish xamda uni o'zgartirish qurolidir".

Bolalarga sensor tarbiya berishda didaktik o'yinlarni roli katta. Didaktik o'yinlar bog'chada maxsus programma asosida olib boriladigan mashg'ulotlarni



muvaffaqiyatli o'tkazishga yordam beradi. Bolalar psixologiyasi fanining predmeti va vazifalari L.F.Obuxova ta'kidlaganidek bolalar tarixan o'zgarib borgan bugungi kunda bolalar psixologiyasi fanining predmeti ontogenezdagi psixik taraqqiyotning umumiy qonuniyatlarini yosh davrlari bir yosh davrdan boshqasiga o'tish sabablarini aniqlashdan iborat. Mashhur rus pedagogi Lestgaftning fikricha insonning bog'cha yoshdagi davri shunday bir bosqichki bu davrda bolalarda xarakter hislatlarining namunalari shakillanib axloqiy xarakterning asoslarga yuzaga keladi. Bog'cha yoshdagi bolalarning ehtiyojlari va qiziqishlari jadal ravishda ortib boradi 3-7 yoshli davrda bolalarning asosiy faoliyati quydagi ketma - ketlikda kechadi

- 1- predmetlarni o'rganish
- 2- individual predmetli o'yinlar
- 3- individual va gruxiy ijod
- 4- musobaqa o'yinlar
- 5- muloqot o'yinlar
- 6- uy mexnati

Bog'cha tarbiyasini olgan bola bilan bog'chaga bormagan bolani solishtirganda ularning fikrlash darajasi o'rtasida yer bilan osmoncha farq borligini sezish qiyin emas degan edi. Maktabgacha yoshdagi bola psixologiyasi ilmida bu yoshdagi bolalarda sifat o'rganishlar tezlashganligini inobatga olgan xolda bu davrni uch bosqichga taqsimlab o'rganish maqsadga muvofiq deb topilgan kichik maktabgacha davr (3-4 yosh), o'rta maktabgacha davr(4-5 yosh), katta maktabgacha yosh davr(5-6 yosh), maktabga tayyorlov yoshi (6-7 yosh), maktabgacha bola rivojlanish jarayonida ajdodlar tomonidan yaratilgan narsa va hodisalar olam sir-sanoatlari bilan alohida maxsus munosabatga kirishadi. Bolalar psixologiyasida obyektiv kuzatish metodi har doim ma'lum maqsadga qaratilgan bo'ladi bunda tarbiyachi va tekshiruvchi psixolog bolalarning xulq atvorlari va xatti harakatlarini ularning turli tuman faoliyatlarida tabiiy sharoitda mavzuli tarzda kuzatadi. Obyektiv kuzatish metodi quydagi qoidalarga asoslanib tashkil qilinishi kerak

1. Kuzatishning aniq maqsadi va rejasi bo'lishi kerak



2. Bola shaxsining yaxlitligi printsiplarga asoslanib ya'ni analitik sintetik nuqtaviy nazarda kuzatish

3. Bolani jamoada va jamoa a'zosi sifatida o'rganish .

Kuzatish metodidan foydalanilganda bolalarning turli o'yin faoliyatlari didaktik mashg'ulotlari mehnat faoliyatlarida xilma xil psixik jarayonlarning va individual xususiyatlarning namoyon bulishinib o'rganish mumkin. Kuzatish metodi uzluksiz yoki faoliyatni tanlab vaqti - vaqti bilan o'tkazish mumkin. Bolalarni uzluksiz kuzatish metodi bilan o'rganilganda ularning barcha fel' atvorlari va xatti harakatlari kundalik faoliyatlari davomida kompleks holda o'rganiladi. Bolalar psixologiyasida kuzatish metodi bolalar taraqqiyotining sarmazmun qirralarini o'rganish va bundan olingan dallilarni kundaliklarida yozib borib o'rganishdan iborat. Bola taraqqiyoti haqida birinchi kundalik 19- asrning ikkinchi yarmida ch.Darvin tomonidan nashr etilgan. Undan so'ng N.N Ladigin - Kots, N.A Menchinskaya V.S Muxina va boshqalar bolalar psixik taraqqiyoti: yuzasidan izchil ravishda yozib borgan o'z kundaliklarini nashr etganlar. Eksperiment metod: psixologiyada keng qo'llaniladi bunda sinaluvchi shaxsda o'rganish lozim bo'lgan psixik jarayon oldindan maqsad qilib olinadi. Masalan matnini tushunish va o'zlashtirish uchun uni qanday tezlikda o'qish samarali bo'lishi aniqlangan. Bolalar psixologiyasida eksperimentning har ikkala turidan keng foydalaniladi biroq bu metodlardan bolalar psixologiyasida foydalanishning o'ziga xos tomoni shundaki bog'cha yoshdagi bolalar laboratoriya sharoitida o'tkaziladigan eksperimentlarning farqiga bormaydilar. Har ikkala holda ham tajribalar vazifa tarzida emas balki o'yin tarzda o'tkazilsa yaxshi natija beradi bolalar psixologiyasida so'rash suxbat metodidan ancha cheklangan holda foydalaniladi bu metodni bog'cha yoshdagi bolalarga nisbatan deyarli qo'llab bo'lmaydi chunki bu yoshdagi bolalar turmush tajribasi juda oz taffakurlari hali yaxshi rivojlanmagan bo'ladi shu sababli kichik yoshdagi bolalar kattalarning bergan savollariga o'ylamay netmay javob qaytaradilar so'rash metodidan foydalanganda odatda juda sodda ishlangan rasmlardan predmetlardan foydalaniladi. Bu metodni 5-6 yoshli bolalarga nisbatan qo'llash mumkin. Muhit ta'lim tarbiya va tegishli mashq miya tuzilishining organik jihatdan yetilishiga



yordam beradi shuning uchun masalan biz aqliy rivojlanish haqida gapirganimizda bu jarayonni miyaning biologik jihatdan yetilishi bilan chambarchas bog‘langan xolda sodir bo‘ladi deb hisoblaymiz. O‘z davrida Burjua psixologi V.Shterin ta‘lim psixik rivojlanishning orqasidan boradi va unga moslashadi degan fikrni olg‘a surgan edi. Bu fikrga qarama- qarshi maxsus sovet psixologi L.S Vigotskiy bolaning psixik rivojlanishida ta‘lim va tarbiyaning etakchilik roli bor degan qoidani bo‘lib ilgari surdi va uni ta‘lim rivojlanishida oldinda boradi va uni o‘z orqasida ergashtirib boradi degan aniq fikrga keladi. Vigotskiy o‘z fikrlarini kengaytirib taraqqiyotning ikki bosqichi : aktual taraqqiyot bosqichi va eng yaqin taraqqiyot zonasi bosqichi bor deb ko‘rsatadi. Aktual taraqqiyot bosqichi muayyan davrda bolaning katta yoshli kishilar yordamisiz mustaqil xarakter qila olishi bilan ta‘riflanadi bu mustahkamlanib qolgan bilimlar ko‘nikma va malakalarda mustaqil foydalanish bosqichidir. Ikkinchi bosqich yaqin o‘rtadagi taraqqiyot zonasi bolaning katta yoshli kishilar yordamida qila oladigan xatti harakati bilan ta‘riflanadi bu psixik taraqqiyot yo‘li uning eng yaqin loyihasidir. Psixolog Vigotskiyning nazariy fikrlari pedagog Makarenkaning fikrlariga mos keladi. Makarenko har bir bolaning kamolot imkoniyatlariga va taraqqiyotining loyiha yo‘llarini aniqlashga e‘tibor bergan edi. Bog‘cha yoshdagi bolalarga beriladigan tarbiya ularning murakkab xarakterlarini o‘zlashtirish elementar gigeyna madaniy va mehnat malakalarini shakllantirish nutqini rivojlantirish hamda ijtimoiy, axloq estetik didning dastlabki kurtaklarini xosil qilishga qaratilishi lozim. Chunki xuddi ana shu davrdan boshlab bolaning mustaqil faoliyati anchagina kuchaya boshlaydi bog‘cha yoshdagi bola mustaqil faoliyatda bo‘la olishi uchun zarur bo‘lgan ikkita qudratli kuchga ega. Birinchidan ma‘lum darajada o‘ziga bo‘ysundirilgan harakat apparatiga ikkinchidan esa atrofdagi katta odamlar va o‘z tengdoshlari bilan bir qadar erkin munosabatda bo‘la oladigan nutqqa ega. Mana shuning uchun bu yoshdagi bolalarning xulq atvorlari xatti harakatlari qiziqish ehtiyojlari bog‘chagacha yoshdagi bolalardan keskin farq qiladi. Bog‘cha yoshdagi davrda bolaning barcha psixik jarayonlari jadal rivojlana borib uning tashqi muhit bilan bo‘ladigan munosabatlarida anchagina o‘zgarishlarni yuzaga keltiradi. Bir tomondan bola bog‘cha yoshiga yetgach kattalarning doimiy yordamlaridan ancha ozod bo‘lib



ulardan bir qadam uzoqlashadi ikkinchi tomondan kattalar bilan bo'lgan munosabatlarni murakkab ko'p tomonlama xarakter kasb eta boshlaydi . Bog'cha yoshdagi bolalarning psixik jihatdan rivojlanishlarida ularda paydo bo'ladigan xilma xil ehtiyoj va qiziqishlar bolalarni u yoki bu harakatga undovchi ularni ishga soluvchi hisoblanadi. Ma'lumki ilk yoshdagi bolalarda asosan organik ehtiyojlar ovqatlanish tashnalikni qondirish kabilar mavjud. Bolaning faoliyat darajasi kengaygan sari atrofdagi narsalarni bilishga qaratilgan ehtiyojlari ham orta boradi. Bunga sabab bolada turmush tajribasining ozligidir. Bog'cha yoshdagi bolalarning psixik jihatdan rivojlanishlarida qiziqishning ham ro'li g'oyat kattadir qiziqish xuddi ehtiyoj kabi bolani biror faoliyatga undovchi omillardan biridir. Qiziqish deganda biz voqelikdagi narsa va hodisalarni bir muncha chuqquroq bilishga qaratilgan maxsus intilishni tushunamiz. Demak qiziqish bilish jarayoni bilan bog'liq bo'lgan har bir shaxsning murakkab sifatdir lekin bog'cha yoshidagi bolalarning qiziqishlari katta odamlardagi kabi bir narsaga nisbatan qat'iy hamda mustahkam bo'lmay bir narsadan ikkinchi narsaga tez tez o'tib turadi. Bundan tashqari bog'cha yoshdagi bolalarning qiziqishlari juda tarqoq va yuzaki bo'ladi Shuni aytish mumkinki oilaning zimmasiga ulkan va zarur ijtimoiy missiya yuklangandir. Bola tarbiyasi eng og'ir ijtimoiy vazifa ekanligi ayondir ota- onaning shaxsiy va ijobiy namunasi solih va Soliha farzandlarning ostona hatlab tashqi dunyoga qadam qo'yilganida esa bolaga atrof muhit va jamoatchilikning ta'siri sezilarli bo'ladi. Ta'lim muassasalari va mahalla - kuy umuman ijtimoy sfera muhiti inson farzandini to hayotining so'ngi daqiqasigacha ta'qib qilib boradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RUYHATI

- 1 Akramova H (2018) Didactic Foundations of Labor Activity for children with intellectual Scientific jurnal.
- 2 Norbosheva " bolalar psixologiyasi"
- 3 E.G'oziyev " umumiy psixologiya"
- 4 Nishonova .Z.T mustaqil ijodiy fikrlash - T " o'qituvchi"1990
- 5 Norbosheva .M.A bolalar psixologiyasi va psixodiagnostika.